

PSA DENSITYNING PROSTATA SARATONINI ANIQLASH VA PROGNOZ QILISHDAGI AHAMIYATI

Timirov Hasan Nusratillo o'g'li

Karmen klinikasi shifokor-uropi, Buxoro shahri, O'zbekiston

Annotatsiya. PSA density (PSAD) prostata saratonini aniqlash va klinik ahamiyatli shakllarini prognoz qilishda muhim diagnostik ko'rsatkichlardan biridir. Ushbu ko'rsatkich PSA darajasini prostata hajmiga nisbatan baholash imkonini beradi. PSADning yuqori qiymatlari klinik ahamiyatli prostata saratoni mavjudligi ehtimolining ortishi bilan bog'liq. PSADni multiparametrik MRT va PI-RADS natijalari bilan birgalikda baholash diagnostik aniqlikni oshirish hamda biopsiya zaruratini belgilashda yordam beradi.

Kalit so'zlar: prostata saratoni, PSA, PSA density (PSAD), prostata-spetsifik antigen, prostata hajmi, diagnostika, prognoz, prostata biopsiyasi, klinik ahamiyatli prostata saratoni.

Kirish. Prostata saratoni erkaklar orasida keng tarqalgan onkologik kasalliklardan biri bo'lib, uni erta aniqlash davolash samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. PSA prostata saratonini aniqlashda keng qo'llanilsa-da, uning darajasi prostata hajmi va yaxshi sifatli giperplaziya ta'sirida ham oshishi mumkin. Shu sababli PSA darajasining prostata hajmiga nisbati – PSA density (PSAD) ko'rsatkichi prostata saratonini aniqlash va klinik prognozini baholashda muhim qo'shimcha mezon hisoblanadi [1].

Materiallar va usullar. Tadqiqotda prostata saratoniga gumon qilingan bemorlarning klinik va laborator ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Bemorlarning qondagi PSA darajasi hamda prostata hajmi aniqlandi. PSA density (PSAD) PSA miqdorining prostata hajmiga nisbati orqali hisoblandi. Olingan PSAD ko'rsatkichlari prostata saratoni aniqlanishi va klinik xususiyatlari bilan solishtirildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, PSA density (PSAD) ko'rsatkichi prostata saratonini aniqlashda muhim diagnostik mezonlardan biri ekanligi aniqlandi. PSA darajasi yuqori bo'lgan barcha bemorlarda prostata saratoni mavjud bo'lmashligi mumkinligi sababli, PSA ko'rsatkichini prostata hajmi bilan birgalikda baholash diagnostik jihatdan samaraliroq bo'ldi. PSAD ko'rsatkichi yuqori bo'lgan bemorlarda klinik ahamiyatli prostata saratonini aniqlash ehtimoli yuqoriroq ekanligi kuzatildi [2, 3, 4]. Shuningdek, PSADni PSA darajasi, prostata hajmi va boshqa klinik ko'rsatkichlar bilan kompleks baholash prostata saratoniga shubha qilingan bemorlarni xavf guruhlariga ajratishda yordam berdi. Olingan natijalar PSADdan prostata biopsiyasiga ehtiyojni baholash va kasallik prognozini aniqlashda qo'shimcha mezon sifatida foydalanish mumkinligini ko'rsatdi.

Xulosa. PSA density prostata saratonini aniqlash va klinik prognozini baholashda muhim qo'shimcha ko'rsatkich hisoblanadi. PSADni PSA darajasi, prostata hajmi va boshqa klinik ma'lumotlar bilan kompleks baholash diagnostik aniqlikni oshirish hamda klinik ahamiyatli prostata saratoni xavfini baholash imkonini beradi. PSAD ko'rsatkichining oshishi klinik ahamiyatli prostata saratoni ehtimolining ortishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu ko'rsatkichdan biopsiya o'tkazish zaruratini baholashda qo'shimcha mezon sifatida foydalanish maqsadga muvofiq. PSADni zamonaviy diagnostik usullar bilan birgalikda qo'llash bemorlarni individual xavf guruhlariga ajratishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wang S., Kozarek J., Russell R. et al. Diagnostic Performance of Prostate-specific Antigen Density for Detecting Clinically Significant Prostate Cancer in the Era of Magnetic Resonance Imaging: A Systematic Review and Meta-analysis // European Urology Oncology. – 2024. – Vol. 7, No. 2. – P. 189–203. – DOI: 10.1016/j.euo.2023.08.002.

2. Malshy K., Ochsner A., Homer A. et al. Consistent predictive ability of prostate-specific antigen density prediction model for clinically significant prostate

cancer across age strata // The Prostate. – 2024. – Vol. 84, No. 13. – P. 1209–1217. – DOI: 10.1002/pros.24757.

3. Cui F., Qiu Y., Xu W. et al. Pretreatment prostate-specific antigen density as a predictor of biochemical recurrence in patients with prostate cancer: a meta-analysis // BMC Cancer. – 2024. – Vol. 24. – Article 305. – DOI: 10.1186/s12885-024-12029-8.

4. Kortenbach K.C., Løgager V., Thomsen H.S., Boesen L. Comparison of PSA density and lesion volume strategies for selecting men with equivocal PI-RADS 3 lesions on bpMRI for biopsies // Abdominal Radiology. – 2023. – Vol. 48. – P. 592–600. – DOI: 10.1007/s00261-022-03720-0.